

2019 -2020 yillar 9 oylik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019 y 9 oylik amalda	2020 y 9 oylik amalda	O'tgan yilga nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	3700.4	3053.0	82.5
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	901.8	720.2	79.8
		km	57.4	77.7	135.4
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	343.9	213.8	62.2
		km	80.5	21.3	26.4
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	1388.7	969.3	69.8
		km	6200.5	1991.5	32
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	1066	1149.7	108
		km	2200	2270	103
5	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	293	11774	40 baravar o'sish

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlar 2020 yil 9 oylikda Investitsiyadasturiga asosan

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **720.2 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan **79.8 foiz**ni tashkiletadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobilyo'llarida **213.8 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi.Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **62.2 foiz**ga teng.

2019-2020 yillar 9 oylig yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining taqqoslama diagrammasi



2020 yil 9 oylig yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **1991.5 km** mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **77.2 km**, Andijonda **268.5 km**, Buxoroda **134.1 km**, Jizzaxda **101.7 km**, Qashqadaryoda **224.2 km**, Navoiyda **92.4 km**,

Namanganda **86.6 km**, Samarqandda **194.1 km**, Surxandaryoda **146.4 km**, Sirdaryoda **90.7 km**, Toshkent viloyatida **108.5 km**, Farg'onada **211.4 km**, Xorazmda **150.3 km** hamda Toshkent shahrida **105.4 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **32 foizni** tashkil etadi.

2020 yil 9 oylik yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (hududlar kesimidagi diagramma)

.

2020 yil 9 oylikda Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **2270 kmdan iborat qismi**da joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2019 yil 9 oylikka qaraganda **103 foizni** tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2020 yil I-yarim yilligida **11774ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2019 yilning mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda **40 barovar** oshgan.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2020yil 9 oylikda –umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **3053 mlrd. so'm**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **82.5 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.